

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA HAR XIL UZUM NAVLARINING BIR YILLIK KO'CHATLARIDA DASTLABKI FENOLOGIK FAZALARINING BORISHINI O'RGANISH

O‘. O. Ochildiev

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti q.xff.d.katta ilmiy xodim

M. Z. Jumanova

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti 1-bosqich daktoronti

A. Xudoynazarova, M. M. Xajiyev

Urganch davlat universiteti talabalari

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlar: Toyfi, gigant, avatar, oq damschiy, qora damschiy, oq maska, qora maska, rizamat, xirmoni, husayni, shoxanak, xelloven. Shira harakati, kurtak-larining bo‘rtishi, novdalarning o’sishi.

Annotatsiya

Xo‘raki, kishmishbop va vinobop uzum navlarining bir yillik ko‘chatlari ekilish sxemalari. O‘suv davrida fenologik fazalarining boshlanishi tuproq hamda havoning haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘chatlarda o‘suv davrining boshlanishi. Variant navga nisbatan boshqa navlarda dastlabki fenologik fazalarining borishidagi farqlar.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish. Uzum ming yillar davomida insoniyatga hamroh bo‘lgan eng qimmatli qishloq xo‘jaligi ekinidir. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan qariyb 50 ming tonna uzum yetishtirilgan. Statistika agentligining dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2022 yilning mos davri bilan solishtirganda 2,7 foizga oshgan. O‘zbekistonda yetishtirilgan uzum umumiyligi hajmining qariyb uchdan bir qismi Surxondaryo viloyati (29,2 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Namangan (15,1 foiz), Qashqadaryo (12,4 foiz), Buxoro (12,2 foiz) va Samarqand (8,9 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Uzum yetishtirishning umumiyligi ulushining eng past ko‘rsatkichlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi (0,7 foiz), Jizzax viloyatiga (1,4 foiz) to‘g‘ri kelgani kuzatildi[2].

Tokning yillik rivojlanish davri o‘suv va tinim davrini o‘z ichiga oladi. O‘suv davri o‘z navbatida 6 ta fenologik fazalardan iborat bo‘lib ular quyidagilardir: birinchi faza shira harakati (tokda shira harakati boshlanib, kurtaklarning ochilish davrigacha, ya’ni ular yozilgunga qadar davom etadi); ikkinchi faza kurtaklar yozilgandan gullashgacha davom etadi; uchinchi faza gullash (gullarning ochilib gultoj qalpochqalarining to‘kilishidan boshlanadi va to‘pgullar to‘kilgungacha davom etadi); to‘rtinchi faza g‘ujumlarning tugishi va o‘sishi (g‘ujum tugunchalarining paydo bo‘lishidan boshlanib, ularning pishishigacha davom etadi); beshinchi faza g‘ujumlarining pishishi (g‘ujumlar pisha boshlashidan to‘lar to‘liq pishgungacha davom etadi); oltinchi faza barglarning to‘kilishi – xazonrezgilik

(g‘ujumlarning to‘liq pishishidan to barglarning to‘kilishigacha davom etadi) [7; 66-bet].

Tokning fenologiyani o‘rganishdan asosiy maqsad- turli hodisalar ta’sirida turlicha o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan vositalarni tavsiflash. Uzumchilikda tadqiqotlar yillik o‘sish bosqichlarining muddatini belgilaydi. Ular tokzorni barpo qilishni loyihalashda va ekishni rivojlanirish uchun zarur bo‘lgan turli xil inson, moddiy va iqtisodiy resurslarni rejalashtirishda ishlatilishi mumkin. Tokning yil davomida rivojlanish xususiyatlarini xususan har bir fenologik fazasi uchun zarur bo‘lgan agrotexnik tadbirlarni bilish va shu asosida ish tutish, tokning barqaror o‘sib rivojlanishini ta’minlash, yuqori va sifatli hosil yetishtirishni talab darajasida boshqarish imkonini beradi. Tokning yillik rivojlanish davri bilan bog‘liq masala yetarli darajada ilmiy o‘rganilmagan. O‘suv davrining alohida fazalari davomiyligi yetarli darajada aniq emas va farqlanish ko‘p hollarda asosan o‘simliklarning morfologik belgilariga ko‘ra tavsiflanadi. Xo‘jalikning muayyan sharoitida tok o‘simligining rivojlanish davrlari fazalarini o‘tish muddatlarini bilish nafaqat nazariy, balki ishlab chiqarish ahamiyatiga ham ega bo‘lgan muhim xo‘jalik belgi hisoblanadi. Tokda rivojlanish fazalarini o‘tishi meteorologik omilarga ham bog‘liq bo‘lib, ularning boshlanish va tugallash muddatlarini hisoblash, tashqi muhitning muayyan sharoitida uzumning turli navlarini joylashtirishga mos kelishini aniqlash va mazkur navlar agrotexnikasining asosiy yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Turli muddatlarda tokning o‘suv fazalarini o‘tish masalalari bilan ko‘pgina MDH va xorijiy tadqiqotchilar shug‘ullangan [3] [4]. A.M.Negrul va Ye.I.Moxovalarning [6] fikricha, navlarning biologik xususiyatlarini, ularning muhitga bo‘lgan talablarini bilish uchun doimiy ravishda har bir uzumchilik xo‘jalikda fenologik kuzatishlar olib borish kerak bo‘ladi. Sh.Temurov [7] muhit sharoitlarga nisbatan eng yaxshi uzum navlarini tanlash, agrotexnik tadbirlarni olib borish muddatlarini aniqlashtirish uchun o‘suv fazalarini o‘tish muddatlarini ahamiyatli ekanligini bir necha marta qayd qilgan edi. Uzumning eng yaxshi navlarini aniqlash uchun tokzorlarda muayyan sharoitlarda fenofazalarni o‘rganish juda muhim hisoblanadi.

Sh.Temurov [7] muhit sharoitlarga nisbatan eng yaxshi uzum navlarini tanlash, agrotexnik tadbirlarni olib borish muddatlarini aniqlashtirish uchun o‘suv fazalarini o‘tish muddatlarini ahamiyatli ekanligini bir necha marta qayd qilgan edi. Uzumning eng yaxshi navlarini aniqlash uchun tokzorlarda muayyan sharoitlarda fenofazalarni o‘rganish juda muhim hisoblanadi.

METOD

Fenologik kuzatuvalar X.Ch.Buriev va boshqalar [1], M.A. Lazarevskiy [5] uslublari bo‘yicha Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm viloyati filialining Urganch tumanida joylashgan dala tajriba maydonida olib borildi.

NATIJALAR

Uzumning turli xil navlarida asosiy fenologik fazalarning o‘tish muddatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot kuzatishlar olib borildi. Uzum ko‘chatlarning rivojlanishida dastlabki fazalari boshlanishini aniq tasavvur qilish uchun ma’lumotlar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval. Tokning bir yillik ko‘chatlarida dastlabki fenologik fazalarning o‘tish muddatları (2023 yil)

№	Uzum ko‘chatlari navlari nomi	Shira harakatining borishi	Kurtaklarning bo‘rtishi(novadalarning shakillanishi).
1	Toyfi	22/III	6/IV
2	Gigant	20/III	4/IV
3	Avatar	22/III	7/IV
4	Oq damska	20/III	5/IV
5	Qora damska	21/III	5/IV

6	Xusayni	19/III	4/IV
7	Xirmoni	18/III	2/IV
8	Oq maska	22/III	6/IV
9	Qora maska	19/III	4/IV
10	Rizamat	21/III	5/IV
11	Shaxanak	19/III	3/IV
12	Holloven	18/III	1/IV

Bu jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki shira harakatining boshlanishi ya'ni birinchi fenologik fazamiz mart oyining uchinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Tajriba uchun tanlangan ko'chatlarda bu faza dastlab xelloven xirmoni navlarida boshlangan, oq maska, avatar va toyfi navida fazalarning boshlanishi kech boshlangan. Shunga mos ravishda kurtaklarning bo'rtishi ya'ni novdalarning shakillanish jarayoni holloven navida boshlanganligini ko'rish mumkin.

Xulosa

1. Uzum navlarida fenologik fazalarning o'tish muddatlarini bilish orqali, ularni hududlar bo'yicha joylashtirish, tokzorlar barpo qilishni hamda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.
2. Tajribada ekilgan variant navga nisbatan rivojlanish fazalari dastlab xirmoni va holloven navlarida boshlangan.
3. Tajribada variant nav sifatida olingan toyfi navimizda hamda avatar navida fazalarning boshlanishishi boshqa navlarga nisbatan kechroq kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buriev X.Ch., Yenileyev N.Sh. va b. Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvalar metodikasi. – T., 2014. – 64 b.
2. Эльхога М.А. Изучение некоторых селекционных сортов винограда. Автореф. дисс... канд. с.-х. наук. – Тбилиси, 1972. – С. 3-5.
3. Кузнецов В.В. Феноклиматическая оценка условий произрастания плодовых и винограда. – Т.: Фан, 1972. – С. 11-18.
4. Лазаревский М.А. Методы ботанического описания и агробиологического изучения сортов винограда // Ампелография СССР. – М.: Пищепромиздат, 1946. – Т.1. – С. 347-400.
5. Муҳамадхонов С.Р., Жонгузаров Ф.Х. Ўсимликшунослиқдан Русча-Ўзбекча луғат 270-б
6. Темуров Ш. “Узумчилик” Ўзбекистон Миллий энциклопедияси: Давлат нашриёти Тошкент-2005
7. Файзиев, Ж. Н., Хайтов, Ж. К. Ў., & Бобоҷонов, О. Ҳ. Ў. (2022). УЗУМНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ШАРОББОП РАНГДОР ВА ОЛТИНДАЙ НАВЛАРИ ҲОСИЛДОРЛИГИ ВА СИФАТИГА ХОМТОК МЕЪЁРИНИНГ ТАҶСИРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 79-86.
8. Nosirovich, F. J., Qizi, Q. S. A., & O'G'Li, B. O. X. (2021). UZUMNING SHAROBBOB NAVLARINI FENOLOGIK FAZALARINI O 'TISHI VA HOSILDORLIK KO 'RSATGICHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 380-387.